

ILG‘OR VA INNOVATSION TAJRIBALARING TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA TAHLIL

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna

Qarshi davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi professori,

Pedagogika fanlari doktori DSc

e-mail: shaxlo_nur73@inbox.ru

Atayeva Maloxat Isakovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

e-mail: *moxim1221@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalgam shirilayotgan tub islohotlar, xususan boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchilarining ilg‘or pedagogik tajribalarini aniqlash, baholash, tizimlashtirish va ommalashtirish masalalari yoritilgan. Ilg‘or pedagogik tajriba tushunchasining mohiyati, uning turlari, zamonaviy ta’limdagi o‘rni, hamda pedagogik innovatsiyalar va psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar asosida tajribalarni aniqlash va baholash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilg‘or tajribalarni tizimli o‘rganishning bosqichlari, ularni joriy etish va targ‘ib qilish mexanizmlari ilmiy-nazariy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ilg‘or pedagogik tajriba, innovatsion ta’lim texnologiyalari, psixologik-pedagogik tajriba, tadqiqot asosidagi tajriba, metodik yondashuv, pedagogik innovatsiya, ta’lim sifati, ommalashtirish, tizimlashtirish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены вопросы реализации коренных реформ в системе образования Республики Узбекистан, в частности, выявление, оценка, систематизация и распространение передового педагогического опыта учителей на этапе начального образования. Проведен анализ сущности понятия «передовой педагогический опыт», его видов, роли в современной системе образования, а также критерии оценки на основе педагогических инноваций и психолого-педагогических подходов. Научно-теоретически обоснованы этапы системного изучения, внедрения и популяризации передового опыта.

Ключевые слова: начальное образование, передовой педагогический опыт, инновационные образовательные технологии, психолого-педагогический опыт, опыт на основе исследований, методический подход, педагогические инновации, качество образования, популяризация, систематизация.

ABSTRACT

This article explores the fundamental educational reforms underway in the Republic of Uzbekistan, with a particular focus on identifying, evaluating, systematizing, and disseminating advanced pedagogical practices at the primary education level. It analyzes the essence of the concept of advanced pedagogical practice, its types, its role in modern education, and the criteria for assessment based on pedagogical innovations and psychological-pedagogical approaches. The stages of systematically studying and promoting advanced experience are theoretically grounded.

Keywords: primary education, advanced pedagogical practice, innovative educational technologies, psychological-pedagogical practice, research-based practice, methodological approach, pedagogical innovation, quality of education, dissemination, systematization.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, o‘quvchilarining bilim darajasini xalqaro standartlarga moslashtirishga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi -o‘quvchining ilk bilim manbai va shaxs sifatida shakllanishidagi muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqichda o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ta’lim sifatining asosiy omillaridan biri sanaladi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator, innovator hamda tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, ularning ilg‘or tajribalarini aniqlash, baholash, tizimlashtirish va ommalashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari hodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-sonli qarorida, xususan, quyidagilar belgilab o‘tilgan: “Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut), shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari negizida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda Pedagogik mahorat hududiy markazlari (keyingi

o'rnlarda - Hududiy markazlar) tashkil etilsin” [1]. (Hozirda har bir viloyatda Pedagogik mahorat markazlari faoliyat yurita boshladi.) Mazkur qarorga muvofiq, pedagogik xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy metodika va ilg'or tajribalar asosida qayta tayyorlash maqsadida respublika va hududiy miqyosdagi mahorat markazlari tashkil etildi. Bu markazlar orqali o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish, ilg'or tajribalarning tarqatilishi va ommalashtirilishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Kraevskiy V.V. “Metodologiya pedagogiki: noviy etap”. – M.: Akademiya, 2008.b Ushbu manbada ilg'or pedagogik tajribaning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Muallif ilg'or tajribani muvaffaqiyatli uslublar yig'indisi emas, balki chuqur tahlil qilingan va ilmiy asoslangan pedagogik amaliyot sifatida talqin etadi. [6;400b]

Raxima Mavlonova, Nargiz Raxmankulova. “Boshlang'ich ta'lism pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya”. -T:Voris Nashriyoti, 2013.Mazkur o'quv qo'llanmada boshlang'ich ta'limda ilg'or va innovatsion tajribalarning o'rni, ularni o'rganish metodlari hamda ommalashtirish usullari tizimli yondashuv asosida yoritilgan. [7;176b]

Abdurahmonova M.D. “Aralash ta'lim – ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida” // Ilm sarchashmalari jurnali. Muallif zamonaviy ta'limda aralash (gibridd) o'qitishning afzalliklarini tahlil qiladi. [2;95-99]

Yo'dgorov Q.Q. “Innovatsion ta'lum texnologiyalari”. – Toshkent, 2018. Kitobda innovatsion ta'lum texnologiyalarining mohiyati, turlari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari keng yoritilgan. Muallif o'qituvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda yangi metod va vositalarning o'rni haqida ilmiy asoslangan fikrlar bildiradi. [5;12]

So'nggi yillarda yozilgan ilmiy maqolalar ilg'or tajribani o'rganishda eksperiment, monitoring, diagnostika va baholash metodikalariga alohida urg'u beradi. Bu ishlar asosida psixologik-pedagogik yondashuv, motivatsiya va individual yondashuvar samaradorligining empirik dalillari taqdim etilgan.

Ilg'or pedagogik tajriba – bu o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatiga ijodiy va izlanish asosida yondashib, yangi metodlar va pedagogik g'oyalarni ishlab chiqishi va amaliyotga samarali joriy etishidir. Pedagogik g'oyalalar bilan qurollana olgan o'qituvchidagi tajriba an'anaviy bo'lib qolishi yaxshi natija bermaydi. Shunday ta'lum usullari mavjudki, bu usullarsiz ko'zlagan maqsadga tez va oson yetish qiyin. Abduraxmonova Mehribon Do'stmurodovna (Jahon Iqtisodiyoti va Diplomiya Universiteti) “Ilm sarchashmalari” jurnalidagi “Aralash ta'lum – ta'lum sifatini

oshirish vositasi sifatida” mavzudagi maqolasida shunday degan: “... aralash ta’lim an'anaviy ta’limning hamda internet tarmog‘ida interaktiv hamkorlikning eng yaxshi tajribalarini o‘zida uyg‘unlashtiradi va muntazam o‘zaro bog‘liqlikda ishlaydi hamda yaxlit butunlikni yuzaga keltiradi”. [2;95-99]

Bundan shuni anglashimiz mumkinki, zamonaviy ta’lim dogmatik, ya’ni o‘zgarmasdan, har jihatdan bir-birini inkor qilmaydigan tajribadan yiroqlashadi. Chunki, bular yangi vositalar, mazmun, usul va shakllar asosida bir-birini inkor qiladi. Navator o‘qituvchi yangi vositalardan foydalanishi va bu asosda mazmunni ham unga moslashi tayin. Bundan tashqari, ilg‘or pedagog pedagogik tajribaga tayangan holda ta’lim-tarbiya talabi doirasida o‘ziga xos usul va shakllarni paydo qilishi va uning asosida zamonga mos munosabatlar vujudga kelishi tayin. Ushbu munosabatlarning o‘zi ilg‘or tajribani vujudga keltiradi.

Ilg‘or tajribalar quyidagi turlarga ajratiladi: individuallashgan, jamoaviy, innovatsion, tadqiqot asosidagi, psixologik-pedagogik tajriba va boshqalar. Individuallashtirish o‘quv jarayonining bosh strategiyasi bo‘lib, unda shaxsni rivojlantirish ta’milanishi oldingi planda bo‘ladi va har bir o‘quv predmetini to‘liq o‘zlashtirishni nazarda tutgan holda integratsiyalash sharoiti vujudga keladi. Jamoaviy tajribada esa, bu holat butun jamoaga qaratilib, umumiy natija ko‘zlanadi.

Demak, ta’lim – tarbiya sifati va samaradorligi o‘quvchining ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug‘ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog‘liq.

Innovatsion tajriba - bu ta’lim, ishlab chiqarish yoki boshqa sohalarda ilg‘or, yangicha yondashuvlar, texnologiyalar, metodlar yoki g‘oyalarni sinab ko‘rish va amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Bu tajriba odatda mavjud tizimni yaxshilash, samaradorlikni oshirish yoki muammolarga yangicha yechim topish maqsadida olib boriladi. Unda yangilikka asoslanganlik asosiy xususiyatlardan bo‘lib, ilgari qo‘llanilmagan usul, texnologiya yoki yondashuvlar sinab ko‘riladi. “Ya’ni, dunyoda har kuni yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu imkoniyatlardan faqat o‘z vaqtidagina foydalanish mumkin. Chunki nafaqat zamon tezlashmoqda, balki, olimlarimiz vaqt ham tezlashayotganligini isbotlab bermoqdalar”. [3;64-68-b]

Shuningdek, bu tajriba amaliy yo‘naltirilgan bo‘lib, nazariy g‘oyalarni amaliyotda sinash, eksperimental xarakterga egalik, ya’ni uni qo‘llash jarayonida kuzatish, baholash va tahlil qilish, agar muvaffaqiyatli bo‘lsa, uni boshqa joylarda ham ommalashtirish, mavjud tizimdagi kamchilik yoki yangicha talablarga javob berish uchun ishlab chiqish kabi jihatlar innovatsion tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari sanaladi.

“Ilmiy asoslangan va tajriba-sinovdan o’tkazilgan metodik qarorlar asosida tashkil etilgan pedagogik amaliyot ilg‘or pedagogik tajriba shaklini tashkil etadi. Bunday amaliyot tizimlilik, takror ishlab chiqish imkoniyati va samaradorlik bilan ajralib turadi, bu esa uni ta’limning innovatsion rivojlanishida muhim omilga aylantiradi”, - deb ta’kidlaydi rus pedagogi V.V.Kraevskiy. U quyidagicha fikr bildiradi: “Передовой педагогический опыт - это не просто совокупность удачных приемов и методов, а результат глубокого анализа практики, ее обобщения и научного осмысления. Он служит основой для построения новых методических подходов и инновационных решений в обучении.” [6;24] “O‘zining shaxsiy pedagogik tajribasini tahlil qilish pedagogning o‘z-o‘zining kasbiy rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida tadqiqotchilik malakasi ivojlanadi va bu pedagogik faoliyat bilan integrallashadi”, - deydi professor Sh.Nurullayeva o‘zinign “Bo‘lajak boshlan‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari” degan maqolasida.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Tadqiqot asosidagi tajriba - bu ilmiy izlanishning muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, oldindan ishlab chiqilgan gipotezani tekshirish, ilmiy asoslangan metod yoki vositalarning samaradorligini amaliyotda sinab ko‘rish orqali natijalarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu jarayon nazariy asoslangan gipotezani amaliyotda tekshirish va tahlil qilishdan iborat bo‘lib, ilmiy izlanishda muhim ahamiyatga ega. U asosan o‘rganilayotgan muammo yoki savolga ilmiy asoslangan javob topish uchun xizmat qiladi. Bunda ilmiy gipotezani tasdiqlash yoki inkor qilish, yangi pedagogik texnologiya, metod yoki yondashuvning samaradorligini aniqlash, o‘quvchilarning psixologik-pedagogik holatini baholash va o‘zgarishlarni kuzatish asosiy maqsad qilib olinadi. Tajribada solishtirma usuldagagi tahlil yetakchilik qiladi va bu asosda odatiy usulda ham, yangi metod texnologiyalar asosida ham o‘rganilishi mumkin.

Psixologik-pedagogik tajriba - bu o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan yangi metod va vositalarning samaradorligini amalda tekshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tajriba shaklidir. Bunday tajribalar odatda ilmiy-tadqiqot ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilar va pedagoglarning faoliyatini chuqur tahlil qilish, ularning psixologik holati, bilim olish faoliyati, motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni o‘rganishga xizmat qiladi. Tadqiqot asosidagi tajribada odatiy va yangi texnologiyalar qo‘llanilsa, psixologik-pedagogik tajribada esa aynan yangi metodlar asosida ish olib boriladi. Psixologik-pedagogik tajribaning asosiy maqsadi - ta’lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik metodikani takomillashtirish, shuningdek psixologik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan usullarni aniqlashdan iborat. Bu tajribaning

ahamiyatli jihatlaridan biri - o‘qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirishga yordam berishi, o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirishi, ta’lim-tarbiyani individual yondashuv asosida tashkil etilishini ta’minlashi va ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini yaratishidir. Shu sababli, psixologik-pedagogik tajriba zamonaviy ta’limda ilmiy yondashuvning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ilg‘or tajribani aniqlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi: natijadorlik, yangilik, isbotlanganlik, ommaviylikka moslik, barqarorlik, optimallik, ijtimoiy ahamiyat. Raxima Mavlonova va Nargiz Raxmankulova hammuallifligidagi “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya” nomli o‘quv qo‘llanmasida pedagogik tajribani o‘rganish metodlari quyidagicha ko‘rsatilgan: “Pedagogik tajribalarni o‘rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o‘quvchilarining yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o‘rganish metodlaridan foydalaniladi”. [7;176]

Ilg‘or tajribalarni tizimli o‘rganish va baholash besh bosqichda amalga oshiriladi:

Aniqlash – mavjud muammo, holat yoki hodisani kuzatish va tahlil qilish orqali aniq faktlar va ishonchli ma’lumotlar to‘planadi. Tadqiqot obyektining xususiyatlari, mavjud muammolar va ehtiyojlar aniqlanadi.

O‘rganish – ilg‘or tajriba namunasi chuqur o‘rganiladi, uning tarkibi, mazmuni, qo‘llangan metodlar, shakl va vositalar tahlil qilinadi. Uning samaradorlik darajasi, qo‘llash shart-sharoitlari aniqlanadi.

Umumlashtirish – ilg‘or tajribaning mazmuni, erishilgan natijalar, ijobiy jihatlari va kamchiliklari aniqlanadi. Tajriba modeli ishlab chiqiladi va ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Ommalashtirish - ilg‘or tajribani boshqa muassasalarda joriy etish uchun maqolalar, qo‘llanmalar, videodarslar va treninglar orqali pedagoglar o‘rtasida tarqatiladi.

Targ‘ibot – ilg‘or tajribani keng jamoatchilikka yetkazish, faoliyatga joriy etish, pedagogik jamoalarda, ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida yoritish orqali amalga oshiriladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Tadqiqot asosidagi tajriba va psixologik-pedagogik tajriba zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot asosidagi tajriba yordamida ilgari surilgan gipotezalar, ya’ni taxminlar amaliyotda tekshiriladi. Bu orqali yangi usul yoki vosita qanday natija berishi

aniqlanadi. Bunda olingan ma'lumotlar asosida xulosa chiqariladi va u keyinchalik boshqa o'qituvchilar faoliyatida qo'llanilishi mumkin.

Psixologik-pedagogik tajriba esa o'quvchilarning bilim olishi, motivatsiyasi va psixologik holatini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Bu tajriba ayniqsa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligini oshirishda muhim rol o'yndaydi. Yangi metod va texnologiyalar aynan shu jarayonda sinovdan o'tkaziladi.

Shuningdek, ilg'or tajribalarni baholashda natijadorlik, yangilik, isbotlanganlik, barqarorlik va ijtimoiy ahamiyat kabi mezonlarga asoslaniladi. Bu esa tajribani nafaqat alohida o'quv muassasada, balki boshqa joylarda ham qo'llash imkonini beradi. Tajribalarni aniqlash, o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va targ'ibot bosqichlari orqali samarali tajribalar ta'lim tizimiga tatbiq etiladi.

Bu jarayon orqali ta'limning sifati oshadi, yangi g'oyalar hayotga tatbiq etiladi va amaliyotda sinovdan o'tgan metodlar keng joriy etiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Ilg'or pedagog o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladi, mualliflik dasturlariga ega, tanqidiy fikrlaydi va ijodiy salohiyatini to'la namoyon eta oladi. Boshlang'ich ta'lim tizimida ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish orqali o'qituvchilarning kasbiy salohiyati yuksaladi, ta'lim sifati oshadi. Bu esa ta'lim jarayonini tubdan yaxshilash va milliy ta'lim metodikasini boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va mакtab ta'limi tashkilotlari hodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli qarori.
2. Abdurahmonova M.D. (2021). Aralash ta'lim – ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida. Ilm sarchashmalari jurnali, 6-son, 95–99-betlar.
3. Atayeva M.I. (2024). Samarali boshqaruv qarorini qabul qilishda ta'lim logistikasiga bo'lgan ehtiyoj. Ilm sarchashmalari, 8-son (avgust), 64–68-betlar.
4. Atayeva M.I. (2025). Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, sintez qilish, tarqatish va amalga oshirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. Uzlusiz ta'limning global rivojlanish tendensiyalari: raqamlashtirish, integratsiya va modernizatsiya mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Urganch: Khwarezm publication, 184–187-betlar.

5. Yo‘ldoshevQ.Q. (2018). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 9–12-betlar.
6. KraevskiyV.V., Berezhnova, E.V. (2008). Metodologiya pedagogiki: novyy etap. Moskva: Akademiya, 400 b.
7. MavlonovaR., RaxmankulovaN. (2013). Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Toshkent: “Voris” nashriyoti, 176 b.
8. Mavlonova R. (2017). Pedagogik innovatsiyalar: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 224 b.
9. Nurullayeva Sh.U. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligi modelida pedagogning professional kompetentligini rivojlantirish yo‘llari. Ta’limda uzviy kasbiy rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi roli, rivojlanish masalalari: maqsad va vazifalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi, 150–152-betlar.
10. Nurullayeva Sh. (2023). Innovatsion ta’lim muhitida pedagogik modellashtirish muammolari. International Scientific and Practical Conference on the Topic: “Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and Solutions”, Vol. 1, No. 01, 10-bet.
11. Nurullayeva Sh.U. (2014). Технологии формирования профессио-нальных навыков у будущих преподавателей // Подготовка профессиональных управлеченческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии. – 2014. – С. 60–64..
12. Nurullayeva Sh.U. (2022). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari. Pedagogik akmeologiya, xalqaro ilmiy-metodik jurnal, 2(2), 13-bet.
13. Saidov S. (2020). Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish metodikasi. Samarqand: Samarqand nashriyoti, 112 b.
14. Xasanboyeva D. (2021). Pedagogik monitoring va baholash tizimi. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 132 b.
15. Xayitov F. (2019). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish. Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 98 b.
16. Karimova N., Zokirova M. (2016). Psixologik-pedagogik yondashuv-lar asosida o‘qitish metodikasi. Toshkent: Iqtisodiyot, 148 b.
17. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami)